

KICHIK VA O'RTA BIZNESNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

B.F.Azimov

Osiyo xalqaro universiteti, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi

Egamov Muxammadjon

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik va o'rta biznesning O'zbekiston iqtisodiyotidagi roli, uning barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. 2025 yil holatiga ko'ra, KOB sektori mamlakat yalpi ichki mahsulotining muhim qismini shakllantirayotgani, aholining keng qatlamini ish bilan ta'minlayotgani va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga xizmat qilayotgani alohida ta'kidlangan.

Shuningdek, maqolada kichik va o'rta biznesni rivojlantirishdagi mavjud muammolar — moliyalashtirish, infratuzilma, raqamli texnologiyalarni joriy etishdagi cheklovlar ko'rib chiqilgan. Germaniya, Yaponiya kabi rivojlangan davlatlar tajribasi asosida O'zbekiston uchun istiqbolli yo'nalishlar tavsiya etilgan.

Xususan, raqamli transformatsiya, klasterlash, ekologik tadbirkorlik va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish asosiy ustuvor yo'nalish sifatida qayd etilgan. Tadqiqot natijasida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash orqali mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkinligi ilmiy asosda isbotlangan.

Bozor iqtisodiyotining zamonaviy sharoitida kichik va o'rta biznes (KOB) mamlakat iqtisodiyotining muhim bo'g'ini sifatida e'tirof etiladi. Bu sektor jamiyatda bandlikni ta'minlash, ichki bozorni rivojlantirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va tadbirkorlik muhitini yaxshilash kabi qator funksiyalarni bajaradi. Shu sababli, so'nggi yillarda O'zbekiston hukumati tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kichik va o'rta biznes – bu kam sonli ishchi kuchiga ega, cheklangan moliyaviy resurslar bilan ishlovchi, lekin moslashuvchan va innovatsion salohiyatga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektidir. Ko'pgina davlatlarda KOB korxonalari yalpi ichki mahsulotning (YaIM) katta qismini shakllantiradi.

Ma'lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jahon mamlakatlari tajribasida o'zining yuksak natija va muvaffaqiyatlari bilan mustahkam o'rin egallagan bo'lib, aksariyat xalqlarda uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 60-70 foizni tashkil etadi. Kichik biznesning rivojlanishi iqtisodiyotdagi jo'shqinlik va samarali raqobat muhiti

uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, iste'mol sektorini kengaytirish orqali talabni rag'batlantirish, iste'mol bozorini tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, byudjet tushumlarini kengaytirishga xizmat qiladi. SHunga ko'ra, ko'plab rivojlangan davlatlar kichik biznes faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga intiladi.

Bugun Yangi O'zbekiston iborasini faxr bilan aytayotganimiz bejiz emas. Boisi, yaqin 4-5 yil oldin ana shu ikki jumla zamirida boshlangan ulkan islohotlar odamlarning o'z imkoniyatlaridan keng foydalanish, istalgan sohada yangiliklar yaratishga qo'rqmay qadam tashlash, eng muhimi, mustaqil tadbirkor sifatida o'zini sinab ko'rish imkoniyatini beryapti. Bu borada, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2025 yil 19-mart kuni kichik va o'rta biznes vakillari bilan uchrashuv "Haqiqatan ham, biz faqat faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erisha olamiz", deya ta'kidlagan so'zlari xalqimizga yanada ishonch, kuch berdi. Prezident 2025-yilda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishdagi ustuvor vazifalarni e'lon qildi. Kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushini 55% ga yetkazish rejalashtirilgan. Bu uchun \$10 mlrd ajratiladi, kichik korxonalar uchun imtiyozli kredit olish imkoniyati yaratiladi, tadbirkor ayollar uchun stavkalar pasayadi.

Shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy — aynan O'zbekiston iqtisodiyoti uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati nimalarda namoyon bo'lmoqda?

Eng avvalo, iqtisodiyotning etakchi soha va tarmoqlarida kichik tadbirkorlik ulushining oshishi iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlik ta'minlanishining mustahkam poydevori hisoblanadi.

Ma'lumki, tadbirkorlik — bu tashabbus va faollik asosida kelgusida yuz berishi mumkin bo'lgan turli xatarlarni hisobga olib, mas'uliyat va javobgarlik bilan amalga oshiriluvchi iqtisodiy faoliyatdir. U erkinlik, ijodkorlik hamda raqobat muhiti uyg'unligida juda katta bunyodkorlik kuchini hosil qiladi. Ayniqsa, faoliyat ko'lami jihatidan nisbatan ixcham bo'lgan kichik tadbirkorlik iqtisodiyotdagi kon'yunkturaviy o'zgarishlarga tezlik bilan moslasha olish, iste'molchining did va qiziqishlarini anglash va e'tiborga olish, ichki imkoniyatlardan to'liq foydalanish, raqobat muhitini kuchaytirgan holda iqtisodiyotga jo'shqinlik baxsh etish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Keyingi besh yilda kichik va o'rta korxonalar soni ikki baravar ko'paydi. Ularda 10,5 million kishi ishlaydi, bu jami mehnatga layoqatli aholining 74 foizini tashkil etadi. Iqtisodiyotning yarmidan ko'pi, sanoat va eksportning uchdan bir qismi shu tarmoqqa to'g'ri keladi.

Prezident tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qolishini ta'kidladi.

“Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash — bizning strategik yo‘limiz”, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig‘ilishda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishning ustuvor vazifalari muhokama qilindi. Xususan, 2025-yil uchun quyidagi maqsadlar belgilandi:

sektorning iqtisodiyotdagi ulushini 55 foizga yetkazish, 70 milliard dollarlik qo‘shimcha qiymat yaratish. Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda kichik biznesning YAIMdagi ulushi 54,3 foizni tashkil etadi (2020-yilda 57,5 foiz edi);

mahsulotlarni tashish, sertifikatlashtirish va standartlashtirishni qo‘llab-quvvatlash orqali kichik biznes eksportini 9 dan 12 milliard dollargacha kengaytirish;

suv ta‘minoti, kanalizatsiya, yo‘l qurilishi, kommunal xizmat ko‘rsatish, moddiy-texnik ta‘minot, migratsiya, madaniyat va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohalarida kichik biznes ulushini 2–3 barobar oshirish;

1,5 million doimiy ish o‘rni yaratish va ushbu sohada band aholi ulushini 75 foizga yetkazish;

ishchilar soni 100 dan ortiq bo‘lgan korxonalar hajmini 4000 taga yetkazish;

kichik biznes sohasida 100 ta yangi brend ishlab chiqish;

kichik biznesni jalb etgan holda 200 ta startap loyihasini moliyalashtirish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda kompleks dastur ishlab chiqildi. 2025-yilda uni amalga oshirish uchun turli manbalardan 10 milliard dollar ajratish rejalashtirilgan.

“Bu yil kichik va o‘rta biznesga 120 trillion so‘m resurs beryapmiz. Buncha katta mablag‘ ilgari hech qachon bo‘lmagan”, — dedi davlat rahbari.

Prezident kichik va o‘rta biznes uchun yaratilayotgan yangi imkoniyatlar haqida atroflicha gapirdi.

Xususan, aholini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish uchun 22 trillion so‘m miqdorida imtiyozli resurslar ajratilmoqda. Shundan 2,5 trillion so‘mi yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga, yana shunchasi tadbirkor ayollar loyihalariga yo‘naltiriladi.

Ayollar uchun kreditlar bo‘yicha foiz stavkasi boshqa qarz oluvchilarga nisbatan 2% past bo‘ladi. “Uy-ro‘zg‘or va farzand tarbiyasidan ortib, tadbirkorlik bilan odamlarni ishli, daromadli qilayotgan ayollarimizga har qancha rahmat aytsak, arziydi”, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Joriy yildan boshlab kichik biznes subyektlariga 300 million so‘mgacha kreditlar ajratila boshlandi. Endi o‘tgan yil davomida kichik yoki o‘rta tadbirkorlik subyektiga aylangan tadbirkorlar 150 million so‘mgacha (hozirda 100 million so‘m) garovsiz kredit olishi mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari, oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida 50 million so‘mgacha (hozirda 33 million) garovsiz kreditlar ajratiladi.

Ilgari kredit majburiyatlari kechiktirilishiga yo‘l qo‘ymagan tadbirkorlar uchun yangi imtiyozli kreditlar olish imkoniyatini yaratish bo‘yicha mas’ul shaxslarga topshiriq berildi.

Kichik va o‘rta biznes loyihalari uchun infratuzilmani rivojlantirish uchun joriy yilda ajratilgan 1 trillion so‘mga qo‘shimcha ravishda yana 500 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltiriladi.

Ishlab chiqarish korxonalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 20 ta tumanda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish bo‘yicha loyiha ofislari ochiladi. Ularga xorijlik mutaxassislar — muhandislar, texnologlar, dizaynerlar, buxgalterlar va marketologlar jalb etiladi. Buning uchun 2025-yilda 100 milliard so‘m yo‘naltiriladi.

Shuningdek, asbob-uskunalar, elektronika, tibbiy buyumlar, logistika va boshqa istiqbolli yo‘nalishlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus dasturlarni qabul qilish ko‘zda tutilgan.

Prezident kichik biznes sohasida keyingi bosqichlarni belgilab beruvchi besh yillik strategiya ishlab chiqilganini ta’kidladi. U ushbu tashabbus xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, biznesning yangi yo‘nalishlarida ilg‘or tajriba, innovatsiyalar, texnologiyalar va xalqaro standartlarni joriy etishga ko‘maklashishga tayyor ekanini bildirdi. Bu maqsadlar uchun 470 million dollar ajratilgan.

Xususan, Osiyo taraqqiyot banki “Moliyaviy inklyuzivlik” dasturi doirasida kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun 100 million dollar, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki “yashil” va innovatsion loyihalarga 200 million dollar, Fransiya taraqqiyot agentligi esa ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun 30 million yevro ajratmoqda.

Kichik va o‘rta biznes quyidagi jihatlar orqali iqtisodiy taraqqiyotda ishtirok etadi:

Bandlikni ta’minlaydi: aholining ish bilan ta’minlangan qatlamining katta qismi aynan KOB sohasida faoliyat yuritadi.

Mahalliy resurslarni ishga soladi: chekka hududlarda iqtisodiy faollikni oshiradi.

Bozor raqobatini kuchaytiradi: yirik kompaniyalarga nisbatan muqobil xizmatlar va mahsulotlarni taklif qiladi.

Innovatsiyalarni rag‘batlantiradi: yangi g‘oyalar va texnologiyalarning tezroq tatbiq etilishiga hissa qo‘shadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rni beqiyos bo‘lib, u milliy iqtisodiy taraqqiyotning ustun ustunlaridan biridir. O‘zbekistonda bu sektor bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, hali ham ko‘plab tizimli muammolar mavjud. Xalqaro tajriba, innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar va davlat

ko'magini uyg'unlashtirgan holda bu sohani rivojlantirish orqali mamlakatda barqaror va inklyuziv iqtisodiy o'sishga erishish mumkin.

Yaqin yillarda KOB sektorida raqamli texnologiyalar, jumladan onlayn savdo, CRM tizimlar, moliyaviy boshqaruv dasturlari keng joriy qilinadi. Bu esa ularning samaradorligini oshiradi.

Sohani yanada rivojlantirish uchun kichik korxonalarni kooperatsiyalarga, ya'ni klaster tizimlariga birlashtirish zarur. Bu orqali ular resurs va bilim almashinuvidan foydalana oladi.

Tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, yoshlar orasida biznes yuritish madaniyatini shakllantirish uchun startap inkubatorlari, treninglar, mentorlik dasturlari keng yo'lga qo'yilishi lozim.

Kelajakda ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun kichik biznesni "yashil texnologiyalar" asosida rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonuni. (Toshkent sh 2019-yil 5-noyabr 580-son)
2. O'zbekiston Respublikasining Markaziy Banki to'g'risidagi qonuni (Toshkent sh. 1995-yil 21-dekabr, 154-I-son)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tijorat banlarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2015-yil 6-may, PQ -2344.
4. "Tijorat banlarning likvidligini boshqarishda qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi 2015 yil 13 avgust, AB 2709-son Nizom.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 19.03.2025 yildagi PF-50-son "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Internet saytlari
6. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.
7. www.lex.uz – Milliy qonunchilik bazasi.
8. www.agrobank.uz - "Agrobank" ATB ning rasmiy sayti.
9. <https://www.norma.uz>